

## XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA VA O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN TIL SIYOSATI

*Yoqubov Ixtiyor Hamdamovich,*  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f. f. f. d. (PhD)*  
*[ixtiyoryoqubov08@gmail.com](mailto:ixtiyoryoqubov08@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiya va O'zbekistonda amalga oshirilgan til siyosati qiyosiy tahlil asosida o'rghaniladi. Turkiyada Mustafa Kamol Ataturk boshchiligidagi olib borilgan til islohoti hamda O'zbekistonda sovet hokimiyati ta'siri ostida amalga oshirilgan til siyosati muhim tarixiy jarayonlar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu islohotlarning lingvistik va sotsiopolitik jihatlari, ularning jamiyatga ta'siri, milliy o'zlikni anglash hamda madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasi yoritib beriladi. O'zaro qiyoslash orqali har ikki mamlakatda til siyosatining o'ziga xos jihatlari hamda umumiy tendensiyalari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** til siyosati, til islohoti, Turkiya, O'zbekiston, XX asr, qiyosiy tahlil, milliy o'zlik.

## XX YÜZYILIN BAŞLARINDA TÜRKİYE VE ÖZBEKİSTAN'DA UYGULANAN DİL POLİTİKASI

*Yakubov İhtiyor Hamdamoviç,*  
*Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü*  
*Özbek dili ve edebiyati anabilim dalı başkanı, DR. (doktora)*

**Özet.** Bu makalede 20. yüzyılın başlarında Türkiye ve Özbekistan'da uygulanan dil politikaları karşılaştırmalı bir analiz temelinde incelenmektedir. Mustafa Kemal Ataturk önderliğinde Türkiye'de gerçekleştirilen dil devrimi ve Sovyet iktidarının etkisi altında Özbekistan'da uygulanan dil politikası önemli tarihsel süreçler olarak ele alınmaktadır. Makalede ayrıca bu reformların dilsel ve sosyopolitik yönleri, toplum üzerindeki etkileri, ulusal kimliğe ve kültürel gelişime katkıları vurgulanmaktadır. Karşılaştırma, her iki ülkeye dil politikalarının özel yönlerini ve genel eğilimlerini ortaya koymaktadır.

**Anahtar kelimeler:** dil politikası, dil reformu, Türkiye, Özbekistan, 20. yüzyıl, karşılaştırmalı analiz, milli kimlik.

## ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА, РЕАЛИЗОВАННАЯ В ТУРЦИИ И УЗБЕКИСТАНЕ В НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА

*Якубов Ихтиёр Хамдамович,*  
*заведующий кафедрой узбекского языка и литературы,*  
*Узбекско-Финского педагогического института,*  
*доктор филологических наук, (доктор философии)*

**Аннотация.** В статье на основе сравнительного анализа изучается языковая политика, проводимая в Турции и Узбекистане в начале XX века. Анализируются как важные исторические процессы языковая реформа в Турции под руководством Мустафы Кемаля Ататюрка и языковая политика, осуществлявшаяся под влиянием советской власти в Узбекистане. В статье также освещаются языковые и социально-политические аспекты этих реформ, их влияние на общество и их вклад в национальную идентичность и культурное развитие. Сравнение выявляет специфические аспекты и общие тенденции языковой политики в обеих странах.

**Ключевые слова:** языковая политика, языковая реформа, Турция, Узбекистан, XX век, сравнительный анализ, национальная идентичность.

## LANGUAGE POLICY IMPLEMENTED IN TURKEY AND UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

*Yakubov Ikhtiyor Hamdamovich,  
Head of the Department of Uzbek language and literature,  
Uzbek-Finnish pedagogical institute  
D.Phil.PhD.*

**Annotation.** This article studies the language policies implemented in Turkey and Uzbekistan at the beginning of the 20 th century on the basis of a comparative analysis. The language reform carried out in Turkey under the leadership of Mustafa Kemal Atatürk and the language policy implemented in Uzbekistan under the influence of Soviet power are analyzed as important historical processes. The article also highlights the linguistic and sociopolitical aspects of these reforms, their impact on society, their contribution to the understanding of national identity and cultural development. Through mutual comparison, the specific aspects and general trends of language policies in both countries are revealed.

**Keywords.** Language policy, language reform, Türkiye, Uzbekistan, 20th century, comparative analysis, national identity.

XX asr boshlarida dunyoning turli burchaklarida milliy uyg'onish harakatlari jadallahsgan bir davrda Turkiya va O'zbekiston hududlarida ham til siyosati masalalari dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Har ikkala hududda ham milliy o'zlikni anglash, madaniy taraqqiyot va mustaqillikka intilish yo'lida til muhim omil sifatida ko'rildi. Ayniqsa, XX asrning dastlabki yillarda til masalasi faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'la boshladi. Turkiy mamlakatlarda milliy tilni asrash, milliy o'zlikni anglash borasidagi hatti-harakatlar dastlab arab alifbosini isloh qilishdan boshlandi. Arab alifbosini isloh qilish masalasi dastlab Qrimda ko'tarildi. Atoqli tatar ma'rifatparvari I.Gaspirinskiy isloh qilingan yozuvni o'zi tashkil qilgan "Tarjimon" gazetasida targ'ib qildi. Bundan tashqari, o'zi tashkil etgan jadid maktablarida ta'lim mazkur yozuv asosida olib borildi. Isloh qilingan yozuvda kitoblar, jurnallar nashr qilindi. Uning bu tashabbusi Qozon, Ufa, Boku shaharlariga, keyinchalik O'rta Osiyoga ham keng yoyildi [8, 12 b.]. Ayniqsa, Turkiya va Ozarbayjonda keyinchalik Turkistonda bu jarayonlar jadallahshib ketdi.

Turkiyada harf islohi masalasi XIX asrning 70-yillarda ko'tariladi. Dastlab harbiy qo'mondon Muxtor posho Istanbulda arab alifbosini o'zgartirish qo'mitasini tashkil etadi. Biroq yuqorida ko'rganimizdek, bu qo'mita faoliyati ham natijasiz tugaydi. 1908-yilda yosh turklar o'zgarishidan keyin bu masala bo'yicha yana jiddiy harakatlar boshlanadi. Maorif noziri bo'lgan Noilbek farmoni bilan parlament komissiyasi tashkil qilinib, mazkur komissiyaga Turkiyaning o'sha vaqtagi mashhur olimlari Najib Osim, Ahmad Midhat, Amrillabek, Valadiy Chalabiy va boshqalar kiritiladi. Bu komissiya ham bir yil faoliyat ko'rsatib, ma'lum ishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, lekin biror natijaga erisha olmaydi. Shundan so'ng bu masalaga e'tibor susayadi, faqat matbuotda Husayn Johidbek, Jalol Nuriybek va boshqalarning maqolalari e'lon qilib boriladi [2, 41 b.]. Shundan so'ng Turkiyada alifbo muammolari avj ola boshladi. XX asr boshlarida Mustafa Kamol Otaturk tomonidan amalga oshirilgan alifbo islohoti Turkiyaning til siyosati borasidagi eng tub islohotlardan biri sifatida baholanadi [7, 220 b.]. 1928-yilda Usmonli turk tilida qo'llanilgan arab alifbosidan voz kechildi va lotin alifbosiga asoslangan yangi turk alifbosi qabul qilindi. Alifbo inqilobida quyidagi sabablarga keltirib o'tishdi:

-Arab alifbosi turk tiliga mos emas Arab alifbosi turk tilining tovush tuzilishiga to'liq moslasha olmadi. Turk tilida sakkiz unli (a, e, ı, i, o, ö, u, ü) bo'lsa-da, arab alifbosida unlilar yetarli

darajada ifodalana olmadi. Bu holat yozma tilni o'rganishni qiyinlashtirdi;

- Savodxonlik darajasining pastligi Usmonli imperiyasida savodxonlik darajasi ancha past edi. 1927 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyada faqat 10% erkaklar va 4% ayollar savodli edi. Bundan maqsad yangi alifboni o'rganishni osonlashtirish orqali aholining ta'lism darajasini oshirish edi;

- G'arb bilan integratsiya Otaturk boshchiligidagi modernizatsiya va zamonaviy harakat Turkiyaning G'arb dunyosi bilan uyg'unligini ta'minlashni maqsad qilgan. Lotin alifbosining qabul qilinishi Yevropadagi ilmiy, texnikaviy va madaniy o'zgarishlardan tezroq xabardor bo'lish uchun muhim hisoblangan;

- Millat-davlat va o'zlikni shakllantirish Usmonli imperiyasi ko'p millatli tuzilishga ega bo'lib, arab alifbosidan nafaqat turklar, balki arablar, forslar va boshqa jamoalar ham foydalangan. Yangi alifbo turk millatining o'zligini mustahkamlash va mustaqil madaniy tuzilma yaratishda ramziy ahamiyatga ega edi [6, 84 b.].

1926-yilgi Boku qurultoyida barcha turkiy xalqlar uchun yagona lotin alifbosi joriy etilishi haqida qaror qabul qilindi. Qaror ijrosini O'zbekistonda ta'minlash uchun bir qancha alifbo loyihalari ilgari surildi. Ular 1929-yil may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan imlo qurultoyda ko'rib chiqildi. Qurultoya rus turkologlari Aleksandr Samoylovich, Lev Shcherba, qrimtatar tilshunosi Bakir Cho'bonzoda, o'zbek olimlari Sadriddin Ayniy, Fitrat va boshqalar qatnashdi [3, 93 b.].

Muhokamalar natijasiga ko'ra:

- o'zbek tilini yozuvda ifoda etish uchun 34 harfdan iborat lotin alifbosi qabul qilindi;
- o'zbek adabiy tili qipchoq shevalariga asoslanishi belgilandi;
- yozuvda singarmonizm – unlilar uyg'unligi aks etishi, barcha o'zlashma so'zlar bu qonuniyatga moslab yozilishi tasdiqlandi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan qurultoyda avvalgisidan mukammal imlo qoidalari tasdiqlanadi. Mukammal deyishimizga sabab, mazkur qoidalarda o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan edi. Chorizmning Turkistonidagi yerli aholining madaniyati va tiliga nisbatan tutgan siyosatining dastlabki tamoyili "bepisandlik" siyosati (политика игнорирования) edi. Bu siyosat yerli xalqlarning tili va madaniyati, an'anviy ta'lism tizimiga befarq qarash, an'anviy ta'lism tizimini oyoqda tutib turgan vaqflar tizimini bekor qilish va oxir-oqibatda yerli aholini rus mustamlaka ma'muriyati barpo etgan "rus-tuzem maktablari"ga jalb qilish orqali ta'sir o'tkaza boshladi. Jadiralar uchun millatni ma'rifatparvar qilish g'oyasi lozim edi. Ular uchun til, imlo bahslari uchun eng ma'qul maydon matbuot edi. Ziyolilar o'zining shaxsiy fikrlari, ilmiy qarashlari va takliflarini "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Ozod Buxoro", "Sharq haqiqati", "Turkiston", "Yangi Farg'ona", "Qizil O'zbekiston" gazetalari, "Alanga", "Yer yuzi", "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallarida berib bordilar [1, 48 b.]. Ayniqla, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyna" jurnalini alohida ta'kidlash kerak. Mazkur jurnal aynan til va adabiyot masalalarini yorituvchi jurnal sifatida ta'sis etilgan edi.

Ko'pgina mutaxassislar birinchi o'zbek lotin alifbosi XX asrda o'zbek tili uchun ishlab chiqilgan barcha yozuv loyihalari ichida eng qulayi bo'lgan deb hisoblaydi. Buning sababi – alifbo fonetik prinsipga asoslangan va tilning fonetik kartinasini to'liq aks ettirgan. Jumladan, o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasini va unlilarni aks ettirish uchun to'qqizta harf qabul qilingan. Bugungi o'zbek tilida ishlatiladigan "o" tovushi lotin alifbosida yo'q edi. "o" harfi bugungi "o" day o'qilardi. "o" tovushi esa "a" harfi bilan ifodalanar edi. Yangi alifboni joriy etish Respublikaning barcha hududlarida (u payti O'zbekiston SSSR tarkibiga Qoraqalpog'iston kirmas, lekin Tojikiston ASSR hamda boshqa bir qancha muxtor tumanlar kirardi) peshlavhalar, rasmiy hujjatlar, gazeta va jurnallar lotin yozuvidagi o'zbek tiliga o'tkazildi. Ayni paytda tilni boyitish, atamalarni o'zbeklashtirish bo'yicha ishlar davom etdi. Bu ishni jadid ma'rifatparvari Elbek boshlab bergen edi – u 1923-yilda "Turkiston" gazetasida, keyinroq "Inqilob" jurnalida e'lon qilgan lug'atida chet el atamalarini o'zbekcha atamalar bilan almashtirishni taklif qildi. U lug'atda 550 ta mana shunday atama keltiradi. Lug'atning kirish qismida shunday deyilgan edi: Bu lug'atni

tuzishdan maqsad barcha chet so‘zlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy o‘zbek atamalarini yaratishdir. Lug‘atni tuzishda biz jonli tilda qo‘llanilayotgan so‘zlardan foydalandik, hozirgi tilimizda bo‘limgan so‘zlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, biz bunday so‘zlarni o‘zimiz sun’iy yasadik [2, 45 b.].

1930-yillarning o‘rtalarida SSSRda til siyosati o‘zgara boshladi. Bu jarayon birinchidan, barcha turkiy xalqlar bitta alifboden foydalanishi ularning integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi, bu esa bolsheviklarni tashvishga solib qo‘ydi. Ikkinchidan, bolsheviklar orasida rus millatchilari yana ovoziga ega bo‘la boshladi. Ularning sa‘y-harakatlari bilan har bir turkiy xalqqa kirill yozuvi asosida bir-biridan farq qiladigan alohida alifbo ishlab chiqishga qaror qilindi. Bu bilan bolsheviklar ikkita maqsadga erishishni rejalashritgan edi:

- turkiy xalqlar integratsiyasiga chek qo‘yish;
- SSSRdagagi turkiy tillarni ruslashtirish.

O‘zbek adabiy tili bazisi qipchoq shevalaridan forslashgan va singarmonizmni yo‘qotib borayotgan qarluq shevalariga ko‘chirildi. Yozuvdan ham singarmonizm olib tashlandi. 1934-yili Θ, Y y, B և harflari alifboden chiqarib yuborildi, Ζ ə harfining ishlatilishi cheklandi. Rasmiy hujjatlarda bu qaror shahar shevalarida singarmonizm yo‘qligi bilan tushuntirilgan bo‘lsa-da, asosiy maqsad o‘zbek tilini boshqa turkiy tillardan uzoqlashtirish bo‘lganini ko‘pchilik olimlar tan oladi. Buni dalillaydigan fakt: qarluq shevalarida singarmonizmning qoldig‘i sifatida “i” tovushi ikki variantda ishlatilishiga qaramay, bu ikki tovush ham yagona i harfi bilan ifodalanishi belgilandi. 1937-yilda bu boradagi muhokamalar taqiqlab qo‘yildi. Keyingi bir necha yilda o‘zbek tilini lotinlashtirish ishida faol qatnashgan ziyorolar yoppasiga “panturkist” va “millatchi” deb e’lon qilinib, qatl etildi yoki qamaldi. Shundan so‘ng chor hukumati tomonidan O‘rta Osiyoda joylashgan turkiy xalqlarni ruslashtirish, kirill alifbosini joriy qilish ommalshib ketdi. XX asrda Turkiya va O‘zbekistonda amalga oshirilgan til islohotlari natijasida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- Arab yozuvi ming yildan ortiq davr mobaynida turkiy xalqlarning asosiy yozuvi sifatida qo‘llanilib, asrlar davomida o‘zgarmay keldi. Jadid ma‘rifatparvarlari tomonidan yangi usuldagи maktablarning paydo bo‘lishi, undagi o‘qitish jarayonida bu yozuvning kamchiliklari ko‘zga tashlana boshladi. Natijada bu yozuvni isloh qilish harakatlari boshlandi.

- Singarmonizm bekor qilinishining oqibatini bugun ham ko‘rib turibmiz: qozoqlar, qirg‘izlar, ozarbayjonlar og‘zaki o‘zbek tilini yaxshi tushunadi, lekin singarmonizm aks etmagani tufayli yozma tilni tushuna olmaydi.

- Turkiyada til siyosati mustaqil milliy davlat qurilishi doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda Sovet boshqaruvi ta’sirida kechdi.

- Ikkala hududda ham yozuv islohoti amalga oshirildi, lekin O‘zbekistonda bu jarayon bir necha bosqichda (arab-lotin-kirill) amalga oshdi.

- Turkiyada til milliy davlatchilik ramzi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda til siyosati dastlab milliy uyg‘onishning bir qismi bo‘lib, keyinchalik sovetizatsiya siyosati doirasida o‘zgartirildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev F. A. Til qanday rivojlanadi. – Toshkent: 1972. 120 b.
2. Azimov I. XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) diss. –Toshkent, 2024. 42 b.
3. Elbek. Imlo masalasi // Tanlangan asarlar. –Toshkent, Sharq, 1999. 140 b.
4. Ercilasun, A. B. (1992). “İsmail Gaspirali’nin Fikirleri”. Türk Dünyası Üzerine İncelemeler. Ankara: Akçağ Yayınları.
5. Gökdağ, B. A. (2015). Türklerin Dünyası, 1. baskı, İstanbul: Kültür Bilimleri Akademisi.
6. J.Eltazarov. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). Samarqand, SamDU 2017, 120 b.
7. Mustafa Kemal Atatürk. (2021) Nutk. Türk Dil Kurumu yayınları. Ankara 320 s.
8. Уалтаева А.С. Исторические аспекты перехода на латиницу // Scientific E-journal “edu.e-history.kz”, 2017. – № 4 (12).